



**IQTIDORLI TALABALAR,  
MAGISTRANTLAR, TAYANCH  
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING  
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI  
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI  
ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

**TO'PLAMI**



**Buxoro - 2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAGISTRATURA BO‘LIMI**

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,  
TAYANCH DOKTORANTLAR VA  
DOKTORANTLARNING**

**TAFAKKUR VA TALQIN  
mavzusida**

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy  
anjuman to‘plami*

**Buxoro 2024-yil, 15-may**

## **Tahrir hay'ati**

- O.X.Xamidov** - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;  
**R.G'.Jumayev** - Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;  
**T.H.Rasulov** - Fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), dotsent;  
**D.R. Djurayev** - Fizika-matematika fanlari doktori, professor;  
**S.Q. Qaxxorov** - Pedagogika fanlari doktori, professor;  
**A.A. Turayev** - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
**S. Bo'riyev** - Biologiya fanlari doktori, professor;  
**B.N.Navro'z-zoda** - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;  
**D.S. O'rayeva** - Filologiya fanlari doktori, professor;  
**A.R.Hamroyev** - Pedagogika fanlari doktori, (DSc) dotsent;  
**M.B.Ahmedova** - Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;  
**B.E.Qilichov** - BuxDU "Ozbek tilshunosligi va jurnalistikasi" kafedrasini professori;  
**E.B.Dilmurodov** - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

*Mas'ul muharrir:*

**A.A. Turayev** – magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD) dotsent

*Musahhih:*

**Sh. Ramazonov** – bosh muharrir BuxDU 2-bosqich magistranti

**T.Sh.Ergashev** – Magistratura bo'limi bosh mutaxassisi

**D.R.Rahmatova** – Magistratura bo'limi mutaxassisi

*Ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'iga asosan tashkil etildi. To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

*Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.*

## MUQADDIMA

Mamlakatimizda bugungi kunda fan va ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar, yoshlarimizning ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar natijasida fanning barcha tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ma'lumotli, yuqori malakaga ega xodimlarning ulushi ortib bormoqda. Joriy yilning Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi bugun biz yurtboshimiz rahnamoligida ulug' niyatlar bilan boshlagan Yangi Uyg'onish davrida mamlakatimizda ilmiy salohiyati baland yoshlar orqali ulkan intellektual boylik yaratishga, xalqimizning hayotini va sihatsalomatligini yaxshilashga va kelgusi avlodlarga o'zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning eng avvalo, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz, degan so'zlarida bugungi kunga qadar o'z qiymatini yo'qotmagan Fitrat-u Behbudiyning ezgu orzu-niyatlari, harakatlari mujassamdir. Zero, ushbu ezgu g'oya har zamonda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Darhaqiqat, bundan 11 asr oldin buyuk mutafakkirimiz Yusuf Xos Hojib "O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik o'lur, bilim qayda bo'lsa, buyuklik olur" deganda butun insoniyatning kelajagi uchun ta'lim va tarbiya orqali komillikka, tinch va osoyishta jamiyat sari borish mumkinligini eslatma o'laroq yozib qoldiradilar. Zero, Edvert Everett nazdi bilan aytganda, Ta'lim va tarbiya armiyadan ko'ra mustaqillik va erkinlikni himoya qilishning ishonchli vositasi. Millatning najot yo'li ham aslida ta'limdadir. Ta'lim bu butun umr egasini kuzatib boradigan xazinadir. Jamiyatning qon tomiri bo'lgan ta'limga e'tibor Yangi O'zbekistonning galdagi nurafshon yo'lining mayog'idir.

Har qanday sohaning rivoji unda faoliyat olib boradigan kadrlar salohiyatiga bog'liq. Yangi O'zbekistonda ilmga e'tibor, ustozlarning jamiyatda obro'yini oshirish yo'lida qilinayotgan yangiliklar e'tiborga sazovor. Tomirlarida olim-u ulamo, fozil-u fuzalolarning iqtidori, shijoati, yaratuvchanlik qoni oqayotgan yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish uchun yaratilgan shart-sharoit – kelajak yo'lida qurilgan eng mustahkam poydevor demakdir. Zotan, sifatli kadr hamda sifatli ta'limga erishish uchun bugungi tezkor va globallashuv jarayonlariga moslasha oladigan, jahon standartlariga javob beradigan, faoliyatini korrupsiyadan xoli halollik asosida tashkillashtiradigan fidoyi va vatanparvar talaba-yoshlarni tarbiyalashimiz lozim.

2023/2024 o'quv yili hozirgi vaqtda universitetimizda birinchi bosqichda 42 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 216 nafar, ikkinchi bosqichda 34 ta mutaxassislik bo'yicha 310 nafar universitet bo'yicha 45 ta mutaxassislik bo'yicha jami 526 nafar magistrlar tahsil olmoqda.

Qays, Iskandar, Moniy, Farrux, Juna kabi o'nlab obrazlar misolida ilm egallash shaxs kamolotining muhim sharti sifatida tasvirlangan.

“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da ham mavzuning ayni qirrasini qaynoq mehr va qalb harorati bilan qalamga olingan. Alisher Navoiy Sayyid Hasan o'rgangan fanlarni birma-bir raqam qiladi: sarf va nahv (grammatikaga oid ilmlar), lug‘at va arabiyat, mantiq va kalom, fiqh va hadis, tafsir, she‘r va muammo, ta‘rix nujum va advor... [2,90]. “Advor” ilmiga “Navoiy asarlari lug‘ati”da quyidagicha izoh berilgan: “Muzika ilmining bir sohasi; muzika nazariyasi, sharq muzikasining eski nota usuli” [4, 30].

“Nasoyimul-muhabbat”da Alisher Navoiy ustozini va do‘sti, darvesh Sayyid Hasan Ardasher (“azize”)ning musiqaga munosabatini aniq tarixiy lavha asosida g‘oyatda ta‘sirchan aks ettirgan: “Va alar (Sayyid Hasan Ardasher – K.Q.) yaxshi un samoi‘g‘a mash‘uf erdilar” [2,20]. Alisher Navoiy talqinicha, hilm, muloyimlik, og‘ir tabiatlilik, bosiqlik, beozorlik xislatidir. Axloq – shaxsning qimmatbaho libosi, hilm esa insonga ko‘rk, husn beruvchi shu bebaho kiyim navlarining ( ya‘ni xulq turlarining ) nozik va nafis naqshlar solib ipakdan to‘qilgan, shu bilan birga eng qattiq, eng mustahkam va eng chidamli matosidir: “Axloq shaxsning og‘ir debosi” [1, 83].

Alisher Navoiy “Nasoyimul-muhabbat”da ustozini va do‘sti Sayyid Hasanni ana shunday noyob fazilat egasi sifatida talqin qiladi va darvesh hayotidan maroqli bir lavha keltirish bilan o‘z fikrini isbotlaydi. Sayyid Hasan Ardasher ishtirokida o‘tgan ma‘rifiy majlislarda hofiz va xonandalar, mutrib va mug‘anniylar ham ishtirok etgan. Bir xush ovoz, iste‘dodli, hofiz bola bo‘lib, u hali juda yosh, balog‘atga yetmagan o‘smir bo‘lgan. Sho‘x, hamisha o‘yinga moyil bolalar odati bo‘yicha yugurib kelib, yopishib olib murshidi komilning ustlariga chiqib olgan. O‘ng va chap yelkalarini ustidan oyoqlarini uzatib olib, tepib o‘ynagan: “Mug‘anniysi bor erdi xush ovoz, ammo kichik yoshlig‘ va devonasoru sho‘x erdi. Majlisda o‘lturg‘och sekrib, ul azizning bo‘ynig‘a minib ayog‘in deqsar erdi” [5,20]. Hofiz bola yelkalarida turib qancha sho‘xlik ko‘rsatsa ham Sayyid Hasan Ardasher bardosh berganlar. Agar shunday xush ovoz sohibiga tanbeh bersam, beg‘ubor ko‘ngli og‘rimasin, degan andisha murshidi komilni to‘xtatib turgan. Sho‘xlik va devonazorlik haddan ortiq davom etavergach yumshoq til bilan aytar ekanlar: “Alar rifqu madero bila aytur erdilar: Hordingiz erkin, tushsangiz ham Siz bilursiz” [5,20]. Qanchalik shirali ovoz sohibi bo‘lmasin, hofiz bolaning el-yurtning eng hurmatli bir allomasiga qilayotgan bunday muomalasi xalq ko‘ngliga og‘ir botgan. Xalq vakillari uni tergap qo‘ymoqchi bo‘lganlar. “Tergovchilar”ga murshidi komilning javobi esa yanada hayratlanarli. “Nasoyimul-muhabbat”dan o‘qiymiz: “El malomat qildilar. Ersa, alar ( “azize”, ya‘ni darvesh Sayyid Hasan Ardasher – K.Q.) man‘ qildilarki , ul ( hofiz bola – K.Q.) ajab karami ehson qiladurki, aytmaydurki, qo‘p (tur o‘rningdan – K.Q.), toshqori bozorga ushbu dastur bila (yelkangda ko‘tarib olib – K.Q.) mani elt? Agar desa erdi, eltmog‘din o‘zga ne chora bor erdi?” [3,20].

Shirali ovoz sohibini hamda xush ovoz jo‘rligida musiqa sadosini eshitishni xush qabul qilgan darvesh Sayyid Hasan Ardasher halim, muloyim, vazmin, sabr-u bardoshli nozik qalb egasi bo‘lgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 14-jild. –Toshkent: Fan, 1998. – 304 b.
2. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 15-jild. –Toshkent: Fan, 1999. – 236 b.
3. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 17-jild. –Toshkent: Fan, 2001. – 520 b.
4. Navoiy asarlari lug‘ati. -Toshkent: Adabiyot va san‘at,1972. - 782 b.

## YANGI O‘ZBEKISTONDA SUG`URTA TIZIMI , UNI INNOVATSION RIVOJLANISHNING ASOSIY YO`NALISHLARI VA SUG`URTA TIZIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O`RNI.

*Z.S.Anvarova*

BuxDU, 2-bosqich magistranti

[z.s.anvarova@buxdu.uz](mailto:z.s.anvarova@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot va sug`urta tizimi, uni innovatsion rivojlanishining asosiy yo`nalishlarining, shuningdek sug`urta tizimida raqamli iqtisodiyotning o`rnining amaliy ahamiyati, jihatlari, va xorij tajribasi haqida so‘z yuritiladi.

Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot, sug`urta tizimi va ularni rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazmoqda, shuningdek jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada siz raqamli iqtisodiyot haqida "Raqamli iqtisodiyot nima?", "Raqamli iqtisodiyot vazifalari va maqsadlari", "Raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishdagi to'siqlar", "Sug`urta tizimi", "Sug`urta tizimi va uni innovatsion rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari", Sug`urta tizimida raqamli iqtisodiyotning o`rni" kabi savollarga javob topishingiz mumkin .

**Kalit so'zlar:** Sug`urta tizimi, raqamli iqtisodiyot, sug`urta tizimidagi innovatsion rivojlanish, sug`urta tizimida raqamli iqtisodiyotning o`rni, raqamli texnologiyalar, taraqqiyot, tizim, iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, robototexnika,IT, raqamli dividntlar, internet banking.

### **Kirish**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan murojaatnomasida "2020yil-Ilm- ma'rifat va raqamli iqtisodiyotyili" deb e'lon qilgan edi. Shundan keyin fuqarolarda "raqamli iqtisodiyot" atamasi haqida ko'plab savollar tug'ila boshladi.

2021-yil 23-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5265-qarori qabul qilindi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda.

Globalizatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda, O'zbekiston ham ushbu jarayonga tobora kirib bormoqda. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish davom etayotgan va ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatining ko'lami keskin darajada oshib borayotganligi sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda. Ushbu holat o'z navbatida, sug'urta faoliyati va sug'urta tizimini innovatsion rivojlantirish, buning uchun esa uning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, sug'urtalashga innovatsion yondashishni amalga kiritishni taqozo etmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Raqamli iqtisodiyot deganda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar - deyarli barcha qo'llamoqda. 2016 yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma'ruza e'lon qildi ("Raqamli dividendlar").

Qo'yilgan maqsadlarini amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil, guruh tadqiqotlari, iqtisodiy va statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash metodlaridan innovatsion yondashib, foydalanish. Tahlillar natijasida O'zbekiston sug'urta bozorining hozirgi rivojlanish tezligi rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetish uchun innovatsion yondashayotgani aniqlangan.

### **Tahlil va natijalar:**

Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba - trakkatsion sektorning o'sishidir

O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari faoliyatiga innovatsion yondashish, kelajakda xalqaro sug'urta bozorlarida mustahkam o'rin egallashiga erishish yo'lida davlatning tashabbuskorligida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

### **Sug'urta tizimida raqamli iqtisodiyotning afzalliklari:**

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Shu jumladan sug'urta tizimiga

innovatsion yondashib raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali sug`urta haqida o'ziga kerakli xizmatlarni tez va sifatli amalga oshirishi mumkin.

Sug`urta to'lovlarini kafolatlash jamg`armasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`urta bozorini rivojlantirish agentligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda **2022-yil 1-iyunga qadar** transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug`urta qilish bo'yicha yagona axborot tizimi negizida barcha sug`urta polislarini ro'yhatga oluvchi va ularning aylanmasini nazorat qiluvchi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o'rinlarda – Yagona axborot tizimi) joriy etilishini ta'minlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, "Raqamli" atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot – ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi.

Sug`urta shartnomalarini Yagona axborot tizimi orqali rasmiylashtirish sug`urta tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. Moliya vazirligi sug`urta tashkilotlari tomonidan ixtiyoriy pensiya sug`urtasi hamda uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq) hayot sug`urtasi turlari bo'yicha sug`urta mukofotlari hisobidan shakllangan mablag'larni investitsiya qilish maqsadida inflyatsiyaga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish bo'yicha va tizimga innovatsion yondashib samaraga erishish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'tlagan Murojaatnomasi.

2. Toshnazarova L. O'zbekiston sug`urta raqobatni rivojlantirish yo'llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4-son, 2021 yil

3. Umirov A. T. O'zbekiston sug'urta bozorida raqobat muhitining holati va uning tahlili.// Iqtisodiyot va ta'lim, 1-son 2020 y.

4. Arobiddin T. Q. " O'zbekiston sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishni ta'minlash masalalari"//UzBridge.No. 1 elektron jurnali-orzu,2020.

5. <https://yuz.uz/uz/news/raqamli-iqtisodiyot-taraqqiyyot-sari-qisqa-yol>

6. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/02/21/digital-2023/>

7. <https://zarnews.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima>

8. Gulyamov, S.S. va B. (2019)raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari.-.: Iqtisod-Moliya. 396 b.

9. World Trade Statistical Review 2019-WorldTrade Organization.



<i>C.M. Ostonova</i>	<i>ОСНОВНЫЕ ТЕМЫ ВОПРОСОВ В ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ Б. ПАСТЕРНАКА: АНАЛИЗ ВТОРОГО И ТРЕТЬЕГО ПЕРИОДОВ ТВОРЧЕСТВА.....948</i>
<i>H. Latipov</i> <i>M.M. Hayotova</i>	<i>“BAYOZI NEKIY” NING TUZILISHI VA TARKIBIY QISMLARI.....951</i>
<i>N.G. Nurullayeva</i>	<i>IQBOL MIRZONING HIKOYANAVISLIK MAHORATI XUSUSIDA.....953</i>
<i>H.P. Hurmuxammadova</i>	<i>МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ.....956</i>
<b>5-SHO‘BA</b> <b>PEDAGOGIKA FANLARINI TADQIQ ETISHNING ISTIQBOLLARI: QARASHLAR VA NAZARIYALAR</b>	
<i>N.M. Saidova</i>	<i>BOBUR BADIY MAHORATI RAHIM VOHIDOV NIGOHIDA.....960</i>
<i>Sh. Saidova</i>	<i>BOSHLANG‘ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI O‘QUVCHILARDA ZAMONAVIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH.....964</i>
<i>M.A. Rustamova</i>	<i>GEOGRAFIYA DARSLARIDA AUDIVIZUAL VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....966</i>
<i>F.D. Kilichev</i>	<i>BERUNIY ASARLARI- O‘RTA OSIYONING ILK BIBLIOGRAFIK VA FALSAFIY MANBALARINING AJOYIB NAMUNASI SIFATIDA.....970</i>
<i>Д.И. Иноятова</i>	<i>СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТЫХ СТРАНАХ.....977</i>
<i>I.O. Ortikova</i>	<i>МАКТАБ О‘QUVCHILARIDA WORDWALL DASTURIY O‘YIN METODIDAN FOYDALANISH ASOSIDA GEOGRAFIK BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....980</i>
<i>Z.H. Jo‘rayeva</i>	<i>MILLIY AN‘ANALARNING MAZMUN MOHIYATI VA ULARNING JISMONIY TA‘LIM JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI.....990</i>
<i>M.H. Ozodova</i>	<i>BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISHDA AXBOROT-TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI.....994</i>
<i>И.С. Темирова</i>	<i>РОЛЬ КРИТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ УМСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ.....996</i>

<b>Z.D.Rasulova</b>	<i>BO'LAJAK O'QITUVCHILAR KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURLASHTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....1000</i>
<b>Q.R.Babadjanov M.R.Atabayeva</b>	<i>BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIV TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHDA AUDITORIYADAN TASHQARI MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI.....1004</i>
<b>R.X.Kadirov B.B.Sharipov M.A.Farmonova Z.J.Boboeva</b>	<i>TALABALAR JISMONIY MADANIYATINING ADAPTIV PEDAGOGIK YONDASHUVLARI .....1008</i>
<b>Sh.Sh.Olimov</b>	<i>ILMIY TADQIQOT JARAYONIDA PEDAGOGIK RISKOLOGIYADAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI .....1015</i>
<b>R.S.Shukurov R.R.Narzullayeva</b>	<i>TALABA-YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....1019</i>
<b>Z.N.Rizoqulov</b>	<i>G'AZZOLIYNING "MUKOSHAFATUL QULUB" ASARIDAGI AYRIM PAND-NASIHATLAR HAQIDA.....1025</i>
<b>S.U.Boymurodov</b>	<i>MALAKALI KURASHCHILAMING YILLIK SIKLDAGI TAYYORGARLIGINI REJALASHTIRISH.....1027</i>
<b>Sh.I.Sodiqov</b>	<i>MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA SPORT YO'NALISHIDAGI HAKRATLI VA XALQ O'YINLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI.....1030</i>
<b>D.D.Ahatova</b>	<i>LUTFIY, ATOYI VA GADOIY G'AZALIYOTIDA PAYG'AMBARLAR OBRAZLARIGA MUROJAATNING KO'LAMI VA TASNIFI.....1034</i>
<b>K.H.Qudratova</b>	<i>NAVOIYNING IJOD CHASHMASIDA SAYYID HASAN.....1037</i>
<b>Z.S.Anvarova</b>	<i>YANGI O'ZBEKISTONDA SUG`URTA TIZIMI , UNI INNOVATSION RIVOJLANISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA SUG`URTA TIZIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O`RNI.....1041</i>
<b>A.A.Boqiyev</b>	<i>SAIF ZAFARI BUXORIYNING "DURRUL MAJOLISI TURKI" TOSHBOSMASI XUSUSIDA.....1044</i>
<b>M.S.Tog'oyeva</b>	<i>BUXORO SHAHRI TABIIY SHAROITI VA IRRIGATSIYA TIZIMI XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA .....1047</i>
<b>M.K.Musayev</b>	<i>BUXORO VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTISHNING MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF QILISH YO`LLARI.....1050</i>
<b>Sh.I.Raxmatova</b>	<i>APPLIKATSIYA USULIDA NAQSH YASASH MAVZUSI BO'YICHA DARS ISHLANMASINI TAYYORLASH.....1054</i>
<b>N.Bekova A.Ortiqova</b>	<i>O'ZBEK ADABIYOTIDA MUXAMMAS JANRI TARAQQIYOTI.....1057</i>

***Н. Сиражиддинов***  
***К. Шоисломова***

*АНАЛИЗ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ТОВАРНОЙ СТРУКТУРЫ  
ЭКСПОРТА В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....1060*